

QISHLOQ XO'JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIY MOHIYATI

ПОНЯТИЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙ- СТВА И ЕГО ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ

THE CONCEPT OF SUSTAINABLE AGRICULTURAL DEVELOPMENT AND ITS ECONOMIC ESSENCE.

SHAMURATOV UMRBEK SHOMUROT O'G'LI

Urganch Ranch Texnologiya Universiteti 2- kurs magistr talabasi

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda qishloq xo'jaligida barqaror rivojlanish paradigmasining nazariy asoslari qayta ko'rib chiqilgan va O'zbekiston agrar sektori misolida uning iqtisodiy mazmuni empirik ma'lumotlar yordamida ochib berilgan. Tadqiqotda 2018–2023 yillar oralig'idagi milliy statistik ko'rsatkichlar tahlili asosida iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy tenglik va ekologik barqarorlik o'rtasidagi munosabatlar modellashtirilgan. Suv resurslaridan foydalanish dinamikasi, tomchilatib sug'orish tizimlarining kengayishi hamda agrar eksport ulushining o'sishi barqaror rivojlanish siyosatining dastlabki samarasini aks ettiradi. Maqolada qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish uchun konseptual tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Аннотация. В данном исследовании пересмотрены теоретические основы парадигмы устойчивого развития в сельском хозяйстве и раскрыто её экономическое содержание с использованием эмпирических данных на примере аграрного сектора Узбекистана. На основе анализа национальных статистических показателей за 2018–2023 годы смоделированы взаимосвязи между экономической эффективностью, социальной справедливостью и экологической устойчивостью. Динамика использования водных ресурсов, расширение систем капельного орошения и рост доли аграрного экспорта отражают первоначальные результаты политики устойчивого развития. В статье разработаны концептуальные рекомендации по совершенствованию механизмов устойчивого развития сельского хозяйства.

Abstract. This study revisits the theoretical foundations of the sustainable development paradigm in agriculture and reveals its economic content through empirical evidence from Uzbekistan's agrarian sector. Based on an analysis of national statistical indicators for 2018–2023, the relationships between economic efficiency, social equity, and ecological sustainability are modelled. The dynamics of water resource use, the expansion of drip irrigation systems, and the growing share of agricultural exports reflect the initial outcomes of sustainable development policies. The article develops conceptual recommendations for improving the mechanisms of sustainable agricultural development.

Kalit so'zlar. Barqaror agrar rivojlanish, suv resurs samaradorligi, tomchilatib sug'orish, agrar eksport diversifikatsiyasi, iqtisodiy-ekologik uyg'unlik, oziq-ovqat tizimi barqarorligi, fermer daromad indeksi, resurs tejovchi texnologiyalar.

Ключевые слова. Устойчивое аграрное развитие, водоресурсная эффективность, капельное орошение, диверсификация аграрного экспорта, эколого-экономическая гармония, устойчивость продовольственной системы, индекс фермерских доходов, ресурсосберегающие технологии.

Keywords. Sustainable agrarian development, water resource efficiency, drip irrigation, agricultural export diversification, eco-economic harmony, food system sustainability, farmer income index, resource-saving technologies.

KIRISH. O'zbekiston iqtisodiyotida agrar sektor o'ziga xos ikki tomonlama ahamiyat kasb etadi: bir tomondan, u milliy YaIMning chorak qismidan ko'prog'ini shakllantiradi; ikkinchi tomondan, mehnat bozorining yarmidan ortiq qismini qamrab olib, qishloq hududlarida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Biroq, so'nggi o'n yillik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy intensiv dehqonchilik uslubi bir qator tuzilmaviy cheklovlarga duch kelmoqda: Orol dengizidan qolgan cho'llanish tahdidi, yer osti suvlari sathining pasayishi va tuproq sho'rlanishining kuchayishi bularning eng ko'zga tashlanuvchi ko'rinishlaridir.

Ushbu muammolar majmuasi o'ziga xos tarixiy kontekstda ko'rib chiqilishi zarur. Sovet davridagi yirik irrigatsiya qurilishlari va paxta yakkahokimligi siyosati mintaqada chuqur ekologik izlar qoldirdi; bu izlarni bartaraf etish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy ham muammo sifatida dolzarb bo'lib turibdi. Ayni paytda, global oziq-ovqat tizimidagi o'zgarishlar — iqlim anomaliyalari, energiya narxlarining beqarorligi va dunyo aholisining o'sishi — O'zbekiston qishloq xo'jaligiga yangi talablar qo'yimoqda.

Barqaror rivojlanish tushunchasi ana shu murakkab haqiqatning iqtisodiy-kontseptual javobi sifatida maydonga chiqadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — faqat nazariy ta'riflar bilan cheklanib qolmasdan, barqarorlikning iqtisodiy mohiyatini milliy statistik ma'lumotlar bilan asoslab, O'zbekiston agrar sektori uchun amaliy yo'nalishlar ishlab chiqishdan iborat.

BARQAROR RIVOJLANISHNING NAZARIY-KONTSEPTUAL ASOSLARI

Barqaror rivojlanish g'oyasining iqtisodiy faniga kirib kelishi bir necha bosqichdan iborat. 1960-yillarda neoklassik iqtisodchilar resurslar chekliligini faqat narx mexanizmi orqali hal etish mumkin, deb hisoblagan. Biroq Garret Hardinning 1968 yildagi mashhur "umumiy foydaning falokati" (tragedy of the commons) nazariyasi bozor muvozanatining tabiiy resurslarni saqlash

masalasidagi cheklanishlarini ko'rsatib berdi. Aynan shu intellektual muhitda ekologik iqtisodiyot fan sifatida shakllana boshladi.

1987 yilda Gru Harlem Brundtland rahbarligidagi BMT komissiyasi barqaror rivojlanishga berilgan ta'rif — kelajak avlodning imkoniyatlarini zaiflashtirib qo'ymasdan, bugungi avlod zaruriyatlarini qondirishga qaratilgan rivojlanish — fan tarixidagi eng ko'p iqtibosal ta'riflardan biriga aylandi. Qishloq xo'jaligi nuqtai nazaridan bu ta'rif uchta o'lchov mezonini — hosildorlik, chidamlilik va mos kelish (productivity, stability, equitability) — o'zida mujassamlashtiradi.

Iqtisodiy nazariya nuqtai nazaridan barqaror qishloq xo'jaligi "tashqi ta'sirlarni ichkilashtirish" (internalization of externalities) tamoyiliga asoslanadi. Masalan, intensiv o'g'itlash natijasidag suv havzalarining ifloslanishi bozor narxlarida aks etmaydi — bu ekologik tashqi ta'sir ishlab chiqaruvchi emas, jamiyat tomonidan ko'riladi. Barqaror rivojlanish iqtisodiyoti bunday tashqi ta'sirlarni davlat aralashuvi, bozor mexanizmlari yoki ijtimoiy normalar orqali narxlarga singdirish orqali bozor muvozanatini ijtimoiy optimal nuqtaga yaqinlashtiradi. (1-jadval)

O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINING HOZIRGI HOLATI: STATISTIK TAHLIL

O'zbekiston Statistika agentligining ma'lumotlarini ketma-ket yillar kesimida tahlil qilish agrar sektorda bir qator ijobiy strukturaviy o'zgarishlarni ko'rsatmoqda. 2018–2023 yillar davomida qishloq xo'jaligi yalpi qiymat qo'shilishi nominal ko'rsatkichda 2,5 barobar o'sgani holda, YaIMdagi nisbiy ulush nisbatan barqaror — 27-29 foiz chegarasida — saqlanib qoldi (1-jadval). Bu ko'rsatkich bir tomondan sektorning iqtisodiyot tarkibidagi muhimligini, ikkinchi tomondan esa uning boshqa tarmoqlar nisbatan tezroq o'sishi fonidagi nisbiy vazni masalasini ko'taradi.

1-jadval. Barqaror qishloq xo'jaligining uchta o'lchov tizimi

Manba: muallif tomonidan FAO (2023) va SDGs doirasida tuzilgan.

Iqtisodiy samaradorlik	Ijtimoiy adolat	Ekologik muvozanat
Resurs unumdorligi	Fermerlar daromadi	Tuproq sog'lig'i
Bozor raqobatbardoshligi	Gender tengligi	Suv samaradorligi
Innovatsion sig'im	Qishloq infratuzilmasi	Karbon izi kamaytirish
Qayta ishlash ulushi	Ta'lim va malaka	Biologik xilma-xillik

2-jadval. O'zbekiston qishloq xo'jaligi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi, 2018–2023 yy.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yil	Qishloq xo'jaligi YaIMdagi ulushi (%)	Qishloq xo'jaligi yalpi qiymati (mlrd so'm)	Qishloq aholisi ulushi (%)	Eksport ulushi (%)
2018	27,3	87 420	50,2	12,4
2019	27,8	103 650	49,8	14,1
2020	29,1	119 300	49,4	13,7
2021	28,6	141 800	49,1	15,8
2022	27,9	178 500	48,7	17,2
2023	27,2	215 600	48,3	18,9

Jadvaldagi ma'lumotlar asosida bir qator muhim tendentsiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchidan, qishloq aholisi ulushining 2018 yildagi 50,2 foizdan 2023 yilga kelib 48,3 foizga tushishi qishloq-shahar migratsiyasining davom etayotganligidan dalolat beradi. Bu tendentsiya qishloq hududlarida mehnat unumdorligini oshirish va qolayotgan aholiga yetarli daromad ta'minlash masalasini yanada dolzarb qiladi. Ikkinchidan, eksport ulushining 12,4 foizdan 18,9 foizgacha o'sishi diversifikatsiya

siyosatining dastlabki ijobiy natijalari sifatida izohlanishi mumkin.

Suv resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlari alohida tahlilni talab etadi. O'rta Osiyo mintaqasida suvning strategik resurs ekanligi va O'zbekistonning Sirdaryo hamda Amudaryo havzalarida suv taqsimotidagi muammolar kontekstida irrigatsiya samaradorligini oshirish nafaqat iqtisodiy, balki geosiyosiy ahamiyat ham kasb etadi.

3-jadval. O'zbekistonda sug'orish tizimi samaradorligi ko'rsatkichlari, 2019–2023 yy.

Ko'rsatkich	2019	2021	2023
Sug'oriladigan maydon (mln ga)	4,28	4,31	4,35
Tomchilatib sug'orish ulushi (%)	1,8	4,2	9,7
O'rtacha suv sarfi (m ³ /ga)	12 400	11 800	10 950
Irrigatsiya samaradorligi (%)	42	47	54
Suv tejash (mln m ³)	—	2 580	6 340

3-jadvaldagi ko'rsatkichlar tomchilatib sug'orish tizimlarining jadal kengayishini ko'rsatmoqda: 2019 yildagi 1,8 foizdan 2023 yilga kelib 9,7 foizga etgan bu o'sish nisbiy jihatdan 5,4 barobar o'zgarishni anglatadi. Sug'orish samaradorligi 42 foizdan 54 foizga ko'tarilishi esa bir gektar yerga sarflanadigan suv miqdorining 12 400 kubometrdan 10 950 kubometrgacha kamayishini ta'minladi. Ushbu dinamikani barqaror rivojlanish iqtisodiyoti nuqtai nazaridan baholash — resurs tejash orqali yaratilgan iqtisodiy qiymat va ekologik manfaatlarning birgalikda oshishini ko'rsatadi.

BARQAROR RIVOJLANISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI

Barqaror qishloq xo'jaligiga o'tishning iqtisodiy mexanizmlari uch yo'nalishda tasniflanishi maqsadga muvofiq:

- 1) tartibga soluvchi mexanizmlar — qonunchilik, standartlar, lisenziyalash;
- 2) moliyaviy mexanizmlar — subsidiyalar, soliq imtiyozlari, yashil kreditlar;
- 3) bozor mexanizmlari — sertifikatlash, mukofotli narxlar, ixtiyoriy kelishuvlar.

Bu uchala mexanizm kompleks qo'llanilgandagina barqarorlikka erishish uchun yetarli shart-sharoitlar vujudga keladi.

Tartibga soluvchi mexanizmlar doirasida 2022 yilda qabul qilingan "Suv resurslaridan foydalanishni tartibga solish to'g'risida"gi yangi qonun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qonun suv iste'molchilari uyushmalari (SUU) tizimini kuchaytirdi va sug'orish normativlarini yangiladi. Biroq, amaliyot ko'rsatadiki, normativlar belgilanishi bilan ularning kuzatilishi va bajarilishini ta'minlovchi monitoring tizimi hali ham to'la takomillashtirilmagan.

Moliyaviy mexanizmlar ichida tomchilatib sug'orish qurilmalarini o'rnatayotgan fermerlar uchun joriy etilgan 50 foizlik subsidiya tizimi ayniqsa diqqatga sazovor. Iqtisodiy samaradorligi nuqtai nazaridan bu subsidiya davlat byudjetiga

dastlabki xarajatlarni keltirsada, uzoq muddatli perspektivada suv iste'molini kamaytirish orqali infratuzilma xarajatlarini qisqartiradi va suv havzalarini muhofaza qiladi. Bunday investitsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy samarasini to'liq baholash uchun xarajat-foyda tahlili (cost-benefit analysis) usulidan foydalanish zarur.

Bozor mexanizmlari jihatidan organik mahsulotlarga xalqaro sertifikatlash imkoniyatlari O'zbekiston fermerlari uchun yangi bozor segmentlarini ochmoqda. Xususan, GCC davlatlari va Yevropa bozorlarida "halol organik" mahsulotlarga talab o'sib bormoqda. Ushbu tendentsiyadan foydalanish uchun O'zbekiston organik dehqonchilik sertifikatlash tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish yo'lida muhim qadamlar qo'ydi — 2021 yilda faoliyat boshlagan O'zbekiston organik qishloq xo'jaligi assotsiatsiyasi ana shu jarayonning institutsional ifodasi hisoblanadi.

XULOSA VA ILMIY TAVSIYALAR

Amalga oshirilgan tadqiqot bir qator muhim xulosalarga kelish imkonini berdi. Birinchidan, O'zbekiston qishloq xo'jaligida barqarorlik ko'rsatkichlari ijobiy dinamika ko'rsatmoqda: sug'orish samaradorligi, eksport diversifikatsiyasi va organik dehqonchilik kabi yo'nalishlarda sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Ikkinchidan, ushbu yutuqlar hali tizimli barqaror rivojlanish modeliga aylanib ulgurmagan — alohida choralar o'rniga integrallashgan yondashuv talab etiladi.

Uchinchidan, tabiiy kapitalning iqtisodiy baholanishi O'zbekiston agrar iqtisodiyotida hali to'la joriy etilmagan. Tuproq degradatsiyasining, suv samaradorligi yo'qotishlarining va karbon chiqindilari xarajatlarining milliy hisobotlarga kiritilishi barqaror rivojlanish siyosatini yanada ma'lumotlarga asoslangan (evidence-based) holga keltiradi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan:

1. qishloq xo'jaligi subsektorlari uchun tabaqalashtirilgan "yashil subsidiya" tizimini joriy etish va uni ekologik natijalarni o'lchash mexanizmlari bilan bog'lash;

2. fermer xo'jaliklarida resurs unumdorligini nazorat qiluvchi raqamli platformalar — aqlli suv hisoblagichlar, yo'l xaritasi monitoring tizimlari — ni kengaytirish;

3. qishloq xo'jaligi vazirligi, ekologiya vazirligi va moliya vazirligi hamkorligida barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari milliy indeksini yaratish;

4. xalqaro "yashil moliya" instrumentlari — yashil obligatsiyalar, iqlim moliyasi fondlari — dan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish.



Foydalanilgan adabiyotlar :



- Brundtland G. H. (1987). Our Common Future: Report of the World Commission on Environment and Development. Oxford University Press. 400 b.
2. FAO. (2023). The State of Food and Agriculture 2023. Revealing the true cost of food. Rome: FAO. 184 p.
3. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2024). Qishloq xo'jaligi statistik to'plami 2023. Toshkent. 218 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi. (2023). Irrigatsiya tarmoqlari samaradorligi monitoringi. Toshkent. 96 b.
5. Rockstrom J. et al. (2017). Sustainable intensification of agriculture for human prosperity and global sustainability. *Ambio*, 46(1), 4–17.
6. Nishonov B. A., Toshmatov N. Z. (2022). Agrar sektorda resurs samaradorligini oshirishning iqtisodiy mexanizmlari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 4(3), 112–127.
7. Xolmatov D. X. (2021). O'zbekistonda irrigatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilishning moliyaviy-iqtisodiy aspektlari. *Moliya va bank ishi*, 2(1), 78–92.
8. UNDP Uzbekistan. (2023). Sustainable Development Goals: Uzbekistan National Review 2023. Tashkent: UNDP. 112 p.